QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TOSHEVA NARGIZA AHMEDOVNA

UCHINCHI TARTIBLI OPERATORLI MATRITSALAR OILASINING MUHIM VA DISKRET SPEKTRLARI

01.01.01 – Matematik analiz

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

UDK: 517.984

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

TOSHEVA NARGIZA AHMEDOVNA

UCHINCHI TARTIBLI OPERATORLI MATRITSALAR OILASINING MUHIM VA DISKRET SPEKTRLARI

01.01.01 – Matematik analiz

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/FM705 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.qarshidu.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim tarmog‘ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Rasulov To‘lqin Husenovich** fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Mo‘minov Zaxriddin Eshqobilovich** fizika-matematika fanlari doktori (DSc), dotsent
	Xamrayev Axror Yusupovich fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.FM.70.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “_____” __________ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti, Matematika va kompyuter ilmlari fakulteti 202-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “______” ____________ kuni tarqatildi
(2023-yil “_____” ____________ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

B.A.Shoimqulov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., professor

Sh.D.Nodirov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.f.d. (PhD)

A.A.Imomov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar aksariyat hollarda Fok fazosining qirqilgan qism fazolarida ta’sir qiluvchi operatorli matritsalar oilasining spektral xossalarini aniqlashga olib kelinadi. Operatorli matritsalar oilasining muhim va diskret spektrlari bilan bog‘liq masalalar qattiq jismlar fizikasi, kvant maydon nazariyasi, statistik fizika, kvant mexanikasi va boshqa ko‘plab sohalardagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shuning uchun panjaradagi soni saqlanmaydigan va uchtadan oshmaydigan zarrachalar sistemasiga mos operatorli matritsalar oilasiga oid tadqiqotlarni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Dunyoda operatorli matritsalar oilasining muhim spektrini tavsiflash va diskret spektrining chekli yoki cheksiz bo‘lish shartlarini aniqlashga doir ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, umumlashgan Fridrixs modellari oilasi uchun bo‘sag‘aviy hodisalarni tahlil qilish, uchinchi tartibli operatorli matritsalar oilasi muhim spektrining tuzilishini aniqlash, xos qiymatlar sonining chekli yoki cheksiz bo‘lish shartlarini topishga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda panjaradagi soni saqlanmaydigan va uchtadan oshmaydigan zarrachalar sistemalariga mos operatorli matritsalar oilasining xossalarini tadqiq qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Operatorli matritsalar oilasining muhim spektrini aniqlash va xos qiymatlari soni uchun asimptotik formula topishga oid salmoqli natijalarga erishildi. “Matematika, fizika, amaliy matematika fanlarining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifalar va faoliyat yo‘nalishlari” etib belgilandi[1]. Bu borada blok operatorli matritsalarning spektral nazariyasini rivojlantirish, uchinchi tartibli operatorli matritsalar oilasining muhim spektri tuzilishini ko‘rsatish hamda uning xos qiymatlari soni chekli yoki cheksiz bo‘ladigan shartlarni topish, shu bilan birga xos qiymatlari soni uchun asimptotik formula olish muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 9-iyuldagi PQ-4387-son “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

[1]O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-son qarori.

qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Fok fazosining qirqilgan qism fazosidagi operatorli matritsalar oilasi spektral nazariyasiga oid tadqiqotlar G.Shpon, I.M.Sigal, A.Soffer, V.Bax, R.A.Minlos, Yu.V.Jukov, H.Neydhardt, S.N.Laqaev, T.H.Rasulov, M.E.Mo‘minov va boshqa ko‘plab olimlar tomonidan olib borilgan.

Hozirgi vaqtda operatorli matritsalar oilasi xos qiymatlari sonini tadqiq qilish masalasi blok operatorli matritsalar nazariyasining chuqur o‘rganilayotgan obyektlaridan biri hisoblanadi. Bunday turdagi operatorlar spektral tahlilidagi asosiy masalalardan biri uning muhim spektridan chapda joylashgan cheksiz sondagi xos qiymatlar mavjudligini o‘rganish masalasidir. Bu hodisaning mavjudligi dastlab uchta zarrachalar sistemasi uchun V.N.Yefimov tomonidan o‘rganilgan hamda keyinchalik Yefimov hodisasi deb atalgan. Ushbu hodisa mavjudligining qat’iy matematik isboti dastlab D.R.Yafayev tomonidan keltirilgan. Keyinchalik Yu.N.Ovchinnikov, I.M.Sigal, H.Tamura, A.V.Sobolev va boshqa olimlar tomonidan uch zarrachali uzluksiz Shryodinger operatori uchun Yefimov hodisasining mavjudligi o‘rganilgan.

Qattiq jismlar fizikasi, shuningdek, panjaraviy maydon nazariyasida $\mathbb{R}^{\mathrm{d}}$ Yevklid fazosidagi uch zarrachali Shryodinger operatorining panjaraviy analogi bo‘lgan diskret Shryodinger operatori deb ataluvchi operatorlar paydo bo‘ladi. Dastlab S.N.Laqayev tomonidan uch o‘lchamli panjaradagi o‘zaro juft-jufti bilan kontakt ta’sirlashuvchi uchta ixtiyoriy va uchta bir xil zarrachali sistemalar uchun Yefimov hodisasining mavjudligi matematik nuqtayi nazardan qat’iy isbotlangan. S.N.Laqayev, S.Albeverio, J.I.Abdullayev va Z.E.Mo‘minovlarning ishlarida $\widehat{H}(K)$ uch zarrachali diskret Shryodinger operatorining z dan chapda yotuvchi xos qiymatlari soni $N(K,z)$ uchun K va z spektral parametrlar bo‘yicha asimptotikalar olingan.

M.E.Mo‘minovning ishida panjaradagi uchta ixtiyoriy zarrachalar sistemasiga mos gamiltonian muhim spektrining bo‘shlig‘ida cheksiz sondagi xos qiymatlar mavjudligi isbotlangan.

Yu.X.Eshqobilovning ishida Xabbard modelida vujudga keluvchi, uch zarrachali model diskret Shryodinger operatori uchun Yefimov hodisasining mavjudligi isbotlangan. Bunda o‘z-o‘ziga qo‘shma chegaralangan operatorlar uchun minimaks prinsipi usullari va musbat integral operatorlar xossalaridan foydalanilgan. Yuqorida keltirib o‘tilgan ishlarda soni saqlanadigan chekli sondagi zarrachalar sistemalari uchun Yefimov hodisasining mavjudligi o‘rganilgan.

S.N.Laqayev, S.Albeverio va T.H.Rasulovlarning ishlarida esa uchinchi tartibli model operatorli matritsa uchun Yefimov hodisasining mavjud bo‘lishi isbotlangan, hamda xos qiymatlar soni uchun asimptotik formula o‘rganilgan. H.Neydhardt, M.E.Mo‘minov va T.H.Rasulovlarning ishida uchinchi tartibli operatorli matritsalar uchun olingan natijalar yordamida panjaradagi ko‘pi bilan ikkita fotonli spin-bozon modelining spektri batafsil o‘rganilgan. M.E.Mo‘minov va T.H.Rasulovlarning ishlarida esa bu turdagi operatorli matritsalar uchun muhim spektrning ichida (muhim spektrning bo‘shlig‘ida, muhim spektrdan chapda) cheksiz sondagi xos qiymatlar mavjud bo‘lish shartlari topilgan.

T.H.Rasulov va E.B.Dilmurodovlarning ishlarida esa soni saqlanmaydigan va uchtadan oshmaydigan zarrachalar sistemasi bilan bog‘liq ikkinchi tartibli operatorli matritsa uchun ikki yoqlama Yefimov hodisasining mavjudligi isbotlangan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan M.01.2017-raqamli “Chiziqli operatorlarning spektral nazariyasi” ilmiy-tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi panjaradagi soni saqlanmaydigan va uchtadan oshmaydigan zarrachalar sistemasiga mos uchinchi tartibli operatorli matritsalar oilasi muhim spektrining tuzilishini aniqlash va uning xos qiymatlari soni chekli yoki cheksiz bo‘lish shartlarini topishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

$h(k)$ umumlashgan Fridrixs modellari oilasining spektrini o‘rganish, $h(k)$ operator xos qiymatlari soni va joylashuv o‘rnini aniqlash;

uch o‘lchamli panjaradagi soni saqlanmaydigan va uchtadan oshmaydigan zarrachalar sistemasiga mos $H(K)$ uchinchi tartibli operatorli matritsalar oilasi bilan bog‘liq $H_{ch}(K)$ kanal operatorini qurish va uning spektrini o‘rganish;

$H(K)$ operatorli matritsalar oilasi muhim spektrining tarmoqlarini aniqlash va ularning joylashuv o‘rnini tadqiq qilish hamda $H(K)$ operator muhim spektri bitta, ikkita, uchta kesmalarning birlashmasidan iborat bo‘lish shartlarini topish;

$H(K)$ operatorli matritsalar oilasi uchun Λ diskret to‘plamdan olingan K parametrlarda chekli sondagi xos qiymatlarga ega bo‘lish shartlarini aniqlash;

ma’lum shartlarda $H(K)$ operatorli matritsalar oilasi cheksiz sondagi manfiy xos qiymatlarga ega bo‘ladigan K parametrning qiymatlari to‘plamini aniqlash hamda xos qiymatlar soni uchun asimptotik formula topish.

Tadqiqotning obyekti sifatida panjaradagi soni saqlanmaydigan va uchtadan oshmaydigan zarrachalar sistemasiga mos uchinchi tartibli operatorli matritsalar oilasi olingan.

Tadqiqotning predmetini Fok fazosining qirqilgan qism fazosidagi o‘z-o‘ziga qo‘shma chegaralangan uchinchi tartibli operatorli matritsalar oilasining spektral xossalari tashkil etgan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida matematik analiz, funksional analiz, oʻz-oʻziga qoʻshma operatorlarning spektral nazariyasi va zamonaviy matematik fizika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uch oʻlchamli panjaradagi soni saqlanmaydigan va uchtadan oshmaydigan zarrachalar sistemasiga mos uchinchi tartibli operatorli matritsalar oilasi muhim spektrining ikki zarrachali va uch zarrachali tarmoqlari aniqlangan;

ikkinchi tartibli operatorli matritsa koʻrinishidagi umumlashgan Fridrixs modellari oilasi spektral parametrining diskret toʻplamdan olingan qiymatlarida boʻsagʻaviy xos qiymat va virtual sathning mavjudlik, hamda musbatlik shartlari topilgan;

nol soni umumlashgan Fridrixs modeli uchun xos qiymat boʻlsa yoki umumlashgan Fridrixs modeli nomanfiy boʻlib, nol soni regulyar tipdagi nuqta boʻlsa, u holda operatorli matritsalar oilasi spektral parametrining diskret toʻplamdan olingan qiymatlarida manfiy xos qiymatlari sonining chekli boʻlishi isbotlangan;

umumlashgan Fridrixs modeli nol energiyali rezonansga ega boʻlsa, u holda uchinchi tartibli operatorli matritsalar oilasi spektral parametrining diskret toʻplamdan olingan qiymatlarida xos qiymatlari sonining cheksiz boʻlishi isbotlangan hamda xos qiymatlar soni uchun asimptotik formula topilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

uch oʻlchamli panjaradagi soni saqlanmaydigan va uchtadan oshmaydigan zarrachalar sistemasiga mos uchinchi tartibli operatorli matritsaning spektral xossalari haqidagi xulosalar atom fizikasida, kvant mexanikasida eksperimental tadqiqotlarning sifat koʻrsatkichini aniqlash hamda sonli hisoblashlarda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik analiz, funksional analiz, matematik fizika va oʻz-oʻziga qoʻshma operatorlarning spektral nazariyasi metodlaridan foydalangan holda aniq matematik tahlillar va isbotlashlar bilan izohlangan.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy ahamiyati ulardan oʻz-oʻziga qoʻshma operatorlar nazariyasining kvant maydonlar nazariyasi, qattiq jismlar fizikasi, statistik fizikada paydo boʻladigan, xususan, uchinchi tartibli operatorli matritsalar bilan bogʻliq masalalarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiya natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, operatorli matritsalarning xos qiymatlari soni yordamida qattiq jismlar fizikasi va kvant mexanikasining panjaradagi soni saqlanmaydigan va uchtadan oshmaydigan zarrachalar sistemalariga mos modellarning xos qiymatlari sonini aniqlash mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uchinchi tartibli operatorli matritsalarga doir olingan ilmiy natijalar asosida:

uchinchi tartibli operatorli matritsalar oilasi muhim spektrining joylashuv oʻrni va tuzilishidan hamda muhim spektrdan chapdagi cheksiz sondagi xos qiymatlarning mavjudlik shartlarini topishda qoʻllanilgan metodlardan Samarqand davlat universitetining 2017-2020-yillarda bajarilgan OT-F4-66 "Panjaradagi chekli sondagi zarrachalar sistemasi modellari. Energiya operatorlarining muhim va diskret spektrlari" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat universitetining 2022-yil 29-sentabrdagi 10-4143-son maʼlumotnomasi). Natijada panjaradagi ikki va uch zarrachali sistema gamiltonianlari muhim spektrining joylashuv oʻrnini hamda xos qiymatlar sonini aniqlash imkonini bergan.

Umumlashgan Fridrixs modeli uchun boʻsagʻaviy hodisalar hamda uchinchi tartibli operatorli matritsa xos qiymatlarining chekliligini tekshirishda qoʻllanilgan metodlardan Malayziyaning Xalqaro islom universitetining FRGS19-039-0647 raqamli fundamental loyihada foydalanilgan (Malayziyaning Xalqaro islom universitetining 2022-yil 25-oktabrdagi maʼlumotnomasi). Natijada oddiy differensial tenglamaga asoslangan usullar yordamida myu qiymatlar quyi chegarasiga sonli yaqinlashishni aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida, jami 9 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, jumladan, 2 tasi xorijiy va 2 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, 90 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiyada tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi yoritilgan, mavzu boʻyicha xorijiy va mahalliy ilmiy-tadqiqot ishlari sharhi, muammoning oʻrganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan maqolalar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Dastlabki tushunchalar va maʼlum faktlar**" deb ataladi. Ushbu bobda operatorlar spektral nazariyasidan yaxshi maʼlum boʻlgan dastlabki maʼlumotlar va muhim faktlar hamda baʼzi operatorli matritsalarning spektral xossalari bilan bogʻliq ilmiy natijalar tahlil qilingan.

Ushbu bobning birinchi paragrafida Fok fazosi, uning ikkita muhim qism fazolari boʻlgan bozonli va fermionli Fok fazolar hamda ularning qirqilgan qism fazolari haqida qisqacha maʼlumotlar bayon qilingan. Bundan tashqari, oʻquvchilarga qulaylik uchun bu fazo va qism fazolardagi elementlarning ko‘rinishi, elementlar skalyar ko‘paytmasi, elementning normasi kabi tushunchalar keltirilgan. Ikkinchi paragrafda keyingi boblarning asosiy natijalarini bayon qilishda va isbotlashda zarur bo‘ladigan asosiy ta’riflar, tushunchalar, tasdiqlar va teoremalar keltirilgan. Xususan, Hilbert fazosidagi chiziqli, chegaralangan va o‘z-o‘ziga qo‘shma operatorning spektri hamda uning ikki turdagi klassifikatsiyasi yoritilgan. Kompakt qo‘zg‘alishlarda muhim spektrning o‘zgarmasligi haqidagi Veyl teoremasi, Veyl mezoni, Fredgolmning analitik teoremasi kabi klassik natijalar o‘z aksini topgan.

Birinchi bobning uchinchi paragrafida $\mathbb{R}^{\mathrm{d}}$ Yevklid fazodagi va z^d panjaradagi soni saqlanmaydigan chekli sondagi zarrachalar sistemasiga mos operatorli matritsalarning spektral xossalari bilan bog‘liq ilmiy natijalar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Uchinchi tartibli operatorli matritsalar oilasining muhim spektri”** deb nomlanadi. $\mathcal{H}$ orqali $\mathcal{H}_0 := \mathbb{C}$, $\mathcal{H}_1 := L_2(\mathbb{T}^3)$ va $\mathcal{H}_2 := L_2^{\mathrm{s}}((\mathbb{T}^3)^2)$ fazolarning to‘g‘ri yig‘indisini belgilaymiz, ya’ni $\mathcal{H} := \mathcal{H}_0 \oplus \mathcal{H}_1 \oplus \mathcal{H}_2$. Bunda $\mathcal{H}_0$, $\mathcal{H}_1$ va $\mathcal{H}_2$ fazolarga $L_2(\mathbb{T}^3)$ fazo yordamida qurilgan $\mathcal{F}_{\mathrm{s}}(L_2(\mathbb{T}^3))$ bozonli Fok fazoning mos ravishda nol zarrachali, bir zarrachali va ikki zarrachali qism fazolari deyiladi.

$\mathcal{H}$ Hilbert fazosida ta’sir qiluvchi quyidagi

$$H(K) := \begin{pmatrix} H_{00}(K) & H_{01} & 0 \\ H_{01}^* & H_{11}(K) & H_{12} \\ 0 & H_{12}^* & H_{22}(K) \end{pmatrix} \tag{1}$$

uchinchi tartibli operatorli matritsalar oilasini qaraymiz. Bu yerda matritsaviy elementlar

$$H_{00}(K)f_0 = w_0(K)f_0, \quad H_{01}f_1 = \int_{\mathbb{T}^3} v_0(t)f_1(t)dt;$$

$$(H_{11}(K)f_1)(p) = w_1(K;p)f_1(p), \quad (H_{12}f_2)(p) = \int_{\mathbb{T}^3} v_1(t)f_2(p,t)dt;$$

$$(H_{22}(K)f_2)(p,q) = w_2(K;p,q)f_2(p,q), \quad f_i \in \mathcal{H}_i, \quad i = 0,1,2$$

kabi aniqlangan bo‘lib, H_{ij}^* $(i < j)$ orqali H_{ij} operatorga qo‘shma operator belgilangan. Bundan tashqari, $w_0(\cdot)$ va $v_i(\cdot)$, $i = 0,1$ funksiyalar $\mathbb{T}^3$ da aniqlangan haqiqiy qiymatli chegaralangan funksiyalar, $w_1(\cdot;\cdot)$ va $w_2(\cdot;\cdot,\cdot)$ funksiyalar esa mos ravishda

$$w_1(K;p) := l_1\varepsilon(p) + l_2\varepsilon(K-p) + 1,$$
$$w_2(K;p,q) := l_1\varepsilon(p) + l_1\varepsilon(q) + l_2\varepsilon(K-p-q)$$

tengliklar yordamida aniqlanib, $l_1, l_2 > 0$ va

$$\varepsilon(q) := \sum_{i=1}^{3} (1 - \cos(nq^{(i)})), \quad q = (q^{(1)}, q^{(2)}, q^{(3)}) \in \mathbb{T}^3, \quad n \in \mathbb{N}.$$

Ta’kidlash joizki, H_{01} va H_{12} operatorlarga yo‘qotish operatorlari, H_{01}^* va H_{12}^* operatorlarga esa paydo qilish operatorlari deyiladi. Mazkur tadqiqot ishida qaralayotgan zarrachalar sistemasida paydo bo‘ladigan va yo‘qoladigan zarrachalar soni 1 ga teng hol tahlil qilinadi. Bu esa o‘z navbatida $H_{02} \equiv 0$ va $H_{02}^* \equiv 0$ ekanligini anglatadi.

1-lemma. *$\mathcal{H}$ Hilbert fazosida (1) tenglik yordamida aniqlangan $H(K)$ operatorli matritsa chiziqli, chegaralangan va o‘z-o‘ziga qo‘shma operator bo‘ladi.*

$H(K)$ operatorli matritsalar oilasining spektral xossalarini o‘rganishda muhim sanalgan $\mathcal{H}_0 \oplus \mathcal{H}_1$ Hilbert fazosida

$$h(k) := \begin{pmatrix} h_{00}(k) & h_{01} \\ h_{01}^* & h_{11}(k) \end{pmatrix}$$

kabi aniqlangan va umumlashgan Fridrixs modellari oilasi deb ataluvchi $h(k)$, $k \in \mathbb{T}^3$ ikkinchi tartibli operatorli matritsalar oilasini qaraymiz. Bu yerda

$$h_{00}(k)f_0 = (l_2\varepsilon(k) + 1)f_0, \quad h_{01}f_1 = \frac{1}{\sqrt{2}}\int_{\mathbb{T}^3} v_1(t)f_1(t)dt,$$

$$(h_{11}(k)f_1)(q) = E_k(q)f_1(q), \quad E_k(q) := l_1\varepsilon(q) + l_2\varepsilon(k-q).$$

$h(k)$, $k \in \mathbb{T}^3$ operatorli matritsaning muhim spektrini aniqlash maqsadida $\mathcal{H}_0 \oplus \mathcal{H}_1$ Hilbert fazosida

$$h_0(k) := \begin{pmatrix} 0 & 0 \\ 0 & h_{11}(k) \end{pmatrix}$$

tenglik orqali aniqlangan $h_0(k)$, $k \in \mathbb{T}^3$ operatorli matritsani qaraymiz. Ko‘rinib turibdiki, $h_0(k)$ operatorli matritsaning $h(k) - h_0(k)$ qo‘zg‘alish operatori 2 o‘lchamli o‘z-o‘ziga qo‘shma operatorli matritsa bo‘ladi. Chekli o‘lchamli qo‘zg‘alishlarda muhim spektrning o‘zgarmasligi haqidagi Veyl teoremasiga ko‘ra $h(k)$ operatorli matritsaning muhim spektri $h_0(k)$ operatorli matritsaning muhim spektri bilan ustma-ust tushadi. Aniqlanishiga ko‘ra

$$\sigma_{\text{ess}}(h_0(k)) = [E_{\min}(k); E_{\max}(k)],$$

bu yerda $E_{\min}(k)$ va $E_{\max}(k)$ sonlari

$$E_{\min}(k) := \min_{q \in \mathbb{T}^3} E_k(q) \quad va \quad E_{\max}(k) := \max_{q \in \mathbb{T}^3} E_k(q)$$

tengliklar yordamida aniqlangan. Shunday qilib, $h(k)$ operatorli matritsaning muhim spektri uchun $\sigma_{\text{ess}}(h(k)) = [E_{\min}(k); E_{\max}(k)]$ tenglik o‘rinlidir.

Har qanday $k \in \mathbb{T}^3$ uchun $\mathbb{C} \setminus [E_{\min}(k); E_{\max}(k)]$ sohada analitik bo‘lib,

$$\Delta(k\,; z) := l_2\varepsilon(k) + 1 - z - \frac{1}{2}\int_{\mathbb{T}^3} \frac{v_1^2(t)dt}{E_k(t) - z}$$

tenglik yordamida aniqlangan funksiyani qaraymiz. Odatda $\Delta(k\,;\cdot)$ funksiyaga $h(k)$ operatorli matritsaga mos Fredgolm determinanti deyiladi.

Quyidagi lemma $h(k)$ operatorli matritsa xos qiymatlari va $\Delta(k\,;\cdot)$ funksiyaning nollari orasidagi bog‘lanishni ifodalaydi.

2-lemma. *Har bir $k \in \mathbb{T}^3$ uchun $z \in \mathbb{C} \setminus [E_{\min}(k); E_{\max}(k)]$ soni $h(k)$ operatorli matritsaning xos qiymati bo‘lishi uchun $\Delta(k\,; z) = 0$ bo‘lishi zarur va yetarlidir.*

3-lemma. *Har bir $k \in \mathbb{T}^3$ uchun $h(k)$ operatorli matritsa $(-\infty; z_0)$, $z_0 \leq E_{\min}(k)$ oraliqda yotuvchi xos qiymatga ega bo‘lishi uchun $\Delta(k\,; z_0) < 0$ shart bajarilishi zarur va yetarlidir.*

4-lemma. *Har bir $k \in \mathbb{T}^3$ uchun $h(k)$ operatorli matritsa $(z_0; +\infty)$, $z_0 \geq E_{\max}(k)$ oraliqda yotuvchi xos qiymatga ega bo‘lishi uchun $\Delta(k\,; z_0) > 0$ bo‘lishi zarur va yetarlidir.*

$H(K)$ operatorli matritsaga mos kanal operator deb ataluvchi va $L_2(\mathbb{T}^3) \oplus L_2((\mathbb{T}^3)^2)$ Hilbert fazosida

$$H_{\text{ch}}(K) := \begin{pmatrix} H_{11}(K) & \frac{1}{\sqrt{2}} H_{12} \\ \frac{1}{\sqrt{2}} H_{12}^* & H_{22}(K) \end{pmatrix}, \quad K \in \mathbb{T}^3 \tag{2}$$

ko'rinishidagi ikkinchi tartibli operatorli matritsani qaraymiz. Ta'kidlash joizki, H_{12}^* qo'shma operator $L_2(\mathbb{T}^3) \oplus L_2((\mathbb{T}^3)^2)$ Hilbert fazoning xususiyatidan kelib chiqqan holda

$$H_{12}^*: L_2(\mathbb{T}^3) \to L_2((\mathbb{T}^3)^2), \quad (H_{12}^* f_1)(p,q) = v_1(q) f_1(p), \quad f_1 \in L_2(\mathbb{T}^3)$$

kabi aniqlanadi. Yuqoridagi kabi aniqlangan $H_{\text{ch}}(K)$ kanal operator $L_2(\mathbb{T}^3) \oplus L_2((\mathbb{T}^3)^2)$ Hilbert fazosidagi chiziqli, chegaralangan va o'z-o'ziga qo'shma operator bo'ladi.

Quyidagicha belgilashlar kiritamiz:

$$m_K := \min_{p,q \in \mathbb{T}^3} w_2(K;p,q), \quad M_K := \max_{p,q \in \mathbb{T}^3} w_2(K;p,q),$$

$$\sigma_K := \bigcup_{p \in \mathbb{T}^3} \{\sigma_{\text{disc}}(h(K-p)) + l_1 \varepsilon(p) \boldsymbol{I}\}, \quad \Sigma_K := [m_K; M_K] \cup \sigma_K$$

bu yerda $\boldsymbol{I}$ orqali $\mathcal{H}_0 \oplus \mathcal{H}_1$ fazodagi birlik operator belgilangan.

2-lemmaga ko'ra σ_K to'plamni biror $p \in \mathbb{T}^3$ element uchun $\Delta(K-p\,; z - l_1\varepsilon(p)) = 0$ tenglik bajariladigan barcha

$$z \in \mathbb{C} \setminus [E_{\min}(K-p) + l_1\varepsilon(p); E_{\max}(K-p) + l_1\varepsilon(p)]$$

sonlar to'plami sifatida aniqlash mumkin.

$H_{\text{ch}}(K)$ kanal operatorning spektrini $h(k)$ umumlashgan Fridrixs modellari oilasining spektri orqali ifodalashga oid tasdiqni keltiramiz.

1-teorema. $H_{\text{ch}}(K)$ *kanal operator sof muhim spektrga ega bo'lib, quyidagi* $\sigma(H_{\text{ch}}(K)) = \Sigma_K$ *tenglik o'rinlidir.*

Endi $H(K)$ operatorli matritsaning diskret (yakkalangan va chekli karrali) xos qiymatlariga mos xos vektor-funksiyalari uchun Faddeyev tipdagi integral tenglamalar sistemasi va uning turli ko'rinishlarini keltirib o'tamiz. Bu natijalar $H(K)$ operatorli matritsaning spektrini tadqiq qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Har bir tayinlangan $K \in \mathbb{T}^3$ element va $z \in \mathbb{C} \setminus \Sigma_K$ soni uchun $\mathcal{H}_0 \oplus \mathcal{H}_1$ Hilbert fazosida

$$T(K,z) := \begin{pmatrix} T_{00}(K,z) & T_{01}(K,z) \\ T_{10}(K,z) & T_{11}(K,z) \end{pmatrix}$$

kabi aniqlangan ikkinchi tartibli operatorli matritsani qaraymiz. Bu yerda $T_{ij}(K,z): \mathcal{H}_j \to \mathcal{H}_i$, $i,j = 0,1$ matritsaviy elementlar

$$T_{00}(K,z) g_0 = (1 + w_0(K) - z) g_0, \quad T_{01}(K,z) g_1 = \int_{\mathbb{T}^3} v_0(t) g_1(t) dt;$$

$$(T_{10}(K,z) g_0)(p) = -\frac{v_0(p) g_0}{\Delta(K-p\,; z - l_1\varepsilon(p))};$$

$$(T_{11}(K,z) g_1)(p) = \frac{v_1(p)}{2\Delta(K-p\,; z - l_1\varepsilon(p))} \int_{\mathbb{T}^3} \frac{v_1(t) g_1(t) dt}{w_2(K;p,t) - z}$$

tengliklar yordamida aniqlangan va $g_i \in \mathcal{H}_i$, $i = 0,1$. Ta'kidlash joizki, har bir

$K \in \mathbb{T}^3$ element va $z \in \mathbb{C} \setminus \Sigma_K$ soni uchun $T_{00}(K,z)$, $T_{01}(K,z)$ va $T_{10}(K,z)$ matritsaviy elementlar 1 o'lchamli operatorlar bo'lib, $T_{11}(K,z)$ operator esa Hilbert-Shmidt sinfiga tegishlidir. Shu sababli $T(K,z)$ kompakt operator bo'ladi.

Quyidagi lemma $H(K)$ operatorli matritsa uchun mashhur Faddeyev natijasining analogi bo'lib, $H(K)$ va $T(K,z)$ operatorli matritsalarning xos qiymatlari orasidagi bog'lanishni ifodalaydi.

5-lemma. *Har bir tayinlangan $K \in \mathbb{T}^3$ element uchun $z \in \mathbb{C} \setminus \Sigma_K$ soni $H(K)$ operatorli matritsaning xos qiymati bo'lishi uchun $\lambda = 1$ soni $T(K,z)$ operatorli matritsaning xos qiymati bo'lishi zarur va yetarlidir. Bundan tashqari, z va 1 xos qiymatlar bir xil karralikga egadir.*

Ta'kidlab o'tamizki,

$$g = T(K,z)g, \quad g = (g_0, g_1) \in \mathcal{H}_0 \oplus \mathcal{H}_1$$

operatorli tenglamaga $H(K)$ operatorli matritsaning xos vektor-funksiyalari uchun Faddeyev tipdagi tenglama deyiladi va $H(K)$ operatorli matritsaning muhim spektrini tahlil qilishda asosiy vazifalardan birini bajaradi.

$\tau_{\mathrm{ess}}(K)$ orqali $H_{\mathrm{ch}}(K)$ kanal operator spektrining quyi chegarasini belgilaymiz, ya'ni

$$\tau_{\mathrm{ess}}(K) = \min \sigma\big(H_{\mathrm{ch}}(K)\big).$$

Barcha $K \in \mathbb{T}^3$ elementlar uchun $\Delta(K - p\,; z - l_1\varepsilon(p))$ funksiya (p,z) o'zgaruvchining funksiyasi sifatida $\mathbb{T}^3 \times (-\infty; \tau_{\mathrm{ess}}(K))$ to'plamda musbat bo'lganligi bois barcha $K, p \in \mathbb{T}^3$ elementlar va $z < \tau_{\mathrm{ess}}(K)$ soni uchun $\Delta(K - p\,; z - l_1\varepsilon(p))$ ifodaning musbat kvadratik ildizi mavjud bo'ladi. $H(K)$, $K \in \mathbb{T}^3$ operatorli matritsaning diskret spektrini tahlil qilishda $\mathcal{H}_0 \oplus \mathcal{H}_1$ fazoda ta'sir qiluvchi hamda o'z-o'ziga qo'shma $\hat{T}(K,z)$, $z < \tau_{\mathrm{ess}}(K)$ kompakt 2×2 blok operatorli matritsani quyidagicha aniqlaymiz:

$$\hat{T}(K,z) := \begin{pmatrix} \hat{T}_{00}(K,z) & \hat{T}_{01}(K,z) \\ \hat{T}_{01}^*(K,z) & \hat{T}_{11}(K,z) \end{pmatrix}.$$

Uning matritsaviy elementlari

$$\hat{T}_{00}(K,z)g_0 = \big(1 + z - w_0(K)\big)g_0, \hat{T}_{01}(K,z)g_1 = -\int_{\mathbb{T}^3} \frac{v_0(t)g_1(t)dt}{\sqrt{\Delta(K - t\,; z - l_1\varepsilon(t))}};$$

$$(\hat{T}_{11}(K,z)g_1)(p) = \frac{v_1(p)}{2\sqrt{\Delta(K - p\,; z - l_1\varepsilon(p))}} \int_{\mathbb{T}^3} \frac{(w_2(K;p,t) - z)^{-1} v_1(t) g_1(t) dt}{\sqrt{\Delta(K - t\,; z - l_1\varepsilon(t))}}.$$

tenglik yordamida aniqlangan. Bunda $g_i \in \mathcal{H}_i, i = 0{,}1$ va

$$(\hat{T}_{01}^*(K,z)g_0)(p) = -\frac{v_0(p)g_0}{\sqrt{\Delta(K - p; z - l_1\varepsilon(p))}}, \quad g_0 \in \mathcal{H}_0.$$

6-lemma. *Faraz qilaylik, $K \in \mathbb{T}^3$ tayinlangan element bo'lsin. $z < \tau_{\mathrm{ess}}(K)$ soni $H(K)$ operatorli matritsaning xos qiymati bo'lishi uchun 1 soni $\hat{T}(K,z)$ operatorli matritsaning xos qiymati bo'lishi zarur va yetarlidir. Bundan tashqari, z va 1 xos qiymatlarning karraliklari ustma-ust tushadi.*

$\mathrm{z} \neq \mathrm{w}_0(\mathrm{K})$ bo'lsin. $\widetilde{\mathrm{T}}_{11}(K;z)$ orqali $L_2(\mathbb{T}^3)$ Hilbert fazosida yadrosi quyidagicha aniqlangan:

$$\tilde{t}_{11}(K;p,q;z):=t_{11}(K;p,q;z)+\varphi_K(p;z)v_0(q)$$

integral operatorni belgilaymiz. Bunda $t_{11}(K;\cdot,\cdot;\cdot)$ va $\varphi_K(\cdot,\cdot)$ yordamchi funksiyalar

$$t_{11}(K;p,q;z):=\frac{v_1(p)v_1(q)}{2\Delta(K-p;z-l_1\varepsilon(p))(w_2(K;p,q)-z)};$$

$$\varphi_K(p;z):=\frac{v_0(p)}{(w_0(K-z))\Delta(K-p;z-l_1\varepsilon(p))}$$

tengliklar bilan aniqlangan.

Quyidagi lemma $H(K)$ va $\tilde{T}_{11}(K;z)$, $z\neq w_0(K)$ operatorlar xos qiymatlari orasidagi bog'lanishni ifodalaydi.

7-lemma. *Har bir tayinlangan $K\in\mathbb{T}^3$ element uchun $z\in\mathbb{C}\backslash(\Sigma_K\cup\{w_0(K)\})$ soni $H(K)$ operatorli matritsaning xos qiymati bo'lishi uchun 1 soni $\tilde{T}_{11}(K;z)$ operatorning xos qiymati bo'lishi zarur va yetarlidir. Bundan tashqari, bu xos qiymatlarning karraliklari ustma-ust tushadi.*

I orqali $L_2(\mathbb{T}^3)$ Hilbert fazosidagi birlik operatorni, $\Delta_{11}(K;z)$ va $D_{11}(K;p,q;z)$lar orqali $I-\tilde{T}_{11}(K;z)$ operatorning mos ravishda Fredgolm determinanti va minorini belgilaymiz.

Har bir tayinlangan $K\in\mathbb{T}^3$ element uchun $\mathbb{C}\backslash\Sigma_K$ sohada regulyar bo'lgan

$$\Omega_K(z):=\left(w_0(K)-z-\int_{\mathbb{T}^3}\frac{v_0^2(t)dt}{\Delta(K-t,z-l_1\varepsilon(t))}\right)\Delta_{11}(K;z)+$$
$$\int_{(\mathbb{T}^3)^2}\frac{v_1(p)v_1(t)D_{11}(K;p,t;z)}{\Delta(K-t,z-l_1\varepsilon(t))}dtdp$$

funksiyani aniqlaymiz.

U holda quyidagi natijalar o'rinli bo'ladi.

1-tasdiq. *$I-\tilde{T}_{11}(K;z)$, $z\neq w_0(K)$ operatorning $\tilde{\Omega}_K(z)$ Fredgolm determinanti uchun*

$$\tilde{\Omega}_K(z)=(w_0(K)-z)^{-1}\Omega_K(z)$$

tenglik o'rinli bo'ladi.

2-tasdiq. *Har bir tayinlangan $K\in\mathbb{T}^3$ element uchun $z\in\mathbb{C}\backslash\Sigma_K$ soni $H(K)$ operatorli matritsaning xos qiymati bo'lishi uchun $\Omega_K(z)=0$ tenglikning bajarilishi zarur va yetarlidir.*

2-teorema. *$H(K)$ operatorli matritsaning muhim spektri $H_{\mathrm{ch}}(K)$ kanal operatorning spektri bilan ustma-ust tushadi, ya'ni $\sigma_{\mathrm{ess}}(H(K))=\sigma(H_{\mathrm{ch}}(K))$ tenglik o'rinlidir. Bundan tashqari, $\sigma_{\mathrm{ess}}(H(K))$ to'plam ko'pi bilan uchta kesmalar birlashmasidan iborat bo'ladi.*

Quyida $H(K)$ operatorli matritsa muhim spektrining asosiy qism to'plamlarini kiritamiz.

1-ta'rif. *σ_K va $[m_K;M_K]$ to'plamlar $H(K)$ operatorli matritsa muhim spektrining mos ravishda ikki zarrachali va uch zarrachali tarmoqlari deyiladi.*

Endi biz $H(K)$ operatorli matritsalar oilasining muhim spektrini tashkil qiluvchi kesmalarning joylashuv o'rnini tahlil qilamiz. Bunday kesmalar soni birga, ikkiga va uchga teng bo'ladigan hollar aniqlangan.

Asosiy natijalarni bayon qilish maqsadida quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$E_{\min}^{(l)}(K):=\min\{\sigma_K\cap(-\infty;m_K]\},\quad E_{\max}^{(l)}(K):=\max\{\sigma_K\cap(-\infty;m_K]\},$$

$$E_{\min}^{(r)}(K):=\min\{\sigma_K\cap[M_K;+\infty)\},\quad E_{\max}^{(r)}(K):=\max\{\sigma_K\cap[M_K;+\infty)\},$$

$$\sigma_{\text{two}}^{(l)}(K):=[E_{\min}^{(l)}(K);E_{\max}^{(l)}(K)],\qquad \sigma_{\text{two}}^{(r)}(K):=[E_{\min}^{(r)}(K);E_{\max}^{(r)}(K)].$$

$\mathbb{C}\backslash[E_{\min}(K,k);E_{\max}(K,k)]$ sohada

$$I_K(k\,;z):=\int_{\mathbb{T}^3}\frac{v_1^2(t)dt}{w_2(K;k,t)-z}$$

yordamchi funksiyani qaraymiz.

3-teorema. *Faraz qilaylik, har bir tayinlangan* $K\in\mathbb{T}^3$ *uchun* $\min\limits_{k\in\mathbb{T}^3}\Delta(K-k;m_K-l_1\varepsilon(k))\geq 0$ *bo'lsin.*

(a) *Agar* $\max\limits_{k\in\mathbb{T}^3}\Delta(K-k;M_K-l_1\varepsilon(k))\leq 0$ *bo'lsa, u holda* $\sigma_{\text{ess}}(H(K))=[m_K;M_K]$ *bo'ladi;*

(b) *agar* $\min\limits_{k\in\mathbb{T}^3}\Delta\big(K-k;M_K-l_1\varepsilon(k)\big)\leq 0$ *va* $\max\limits_{k\in\mathbb{T}^3}\Delta(K-k;M_K-l_1\varepsilon(k))>0$ *bo'lsa, u holda* $\sigma_{\text{ess}}(H(K))=[m_K;E_{\max}^{(r)}(K)]$ *bo'ladi;*

(c) *agar* $\min\limits_{k\in\mathbb{T}^3}\Delta(K-k;M_K-l_1\varepsilon(k))>0$ *bo'lsa, u holda*

$$\sigma_{\text{ess}}(H(K))=[m_K;M_K]\cup\sigma_{two}^{(r)}(K)$$

munosabat o'rinli bo'ladi. Bundan tashqari, $E_{\min}^{(l)}(K)=m_K$ *tenglik o'rinli bo'ladi.*

4-teorema. *Faraz qilaylik, har bir tayinlangan* $K\in\mathbb{T}^3$ *uchun* $\min\limits_{k\in\mathbb{T}^3}\Delta\big(K-k;m_K-l_1\varepsilon(k)\big)<0,\quad \max\limits_{k\in\mathbb{T}^3}\Delta(K-k;m_K-l_1\varepsilon(k))\geq 0$ *bo'lsin.*

(a) *Agar* $\max\limits_{k\in\mathbb{T}^3}\Delta(K-k;M_K-l_1\varepsilon(k))\leq 0$ *bo'lsa, u holda* $\sigma_{\text{ess}}(H(K))=\left[E_{\min}^{(l)}(K);M_K\right]$ *bo'ladi;*

(b) *agar* $\min\limits_{k\in\mathbb{T}^3}\Delta(K-k;M_K-l_1\varepsilon(k))\leq 0$ *va* $\max\limits_{k\in\mathbb{T}^3}\Delta(K-k;M_K-l_1\varepsilon(k))>0$ *bo'lsa, u holda* $\sigma_{\text{ess}}(H(K))=\left[E_{\min}^{(l)}(K);E_{\max}^{(r)}(K)\right]$ *bo'ladi;*

(c) *agar* $\min\limits_{k\in\mathbb{T}^3}\Delta(K-k;M_K-l_1\varepsilon(k))>0$ *bo'lsa, u holda*

$$\sigma_{\text{ess}}(H(K))=\left[E_{\min}^{(l)}(K);M_K\right]\cup\sigma_{\text{two}}^{(r)}(K)$$

munosabatga ega bo'lamiz. Bundan tashqari, $E_{\min}^{(l)}(K)<m_K$ *tengsizlik o'rinli bo'ladi.*

5-teorema. *Faraz qilaylik, har bir tayinlangan* $K\in\mathbb{T}^3$ *uchun* $\max\limits_{k\in\mathbb{T}^3}\Delta(K-k;m_K-l_1\varepsilon(k))<0$ *bo'lsin.*

(a) *Agar* $\max\limits_{k\in\mathbb{T}^3}\Delta(K-k;M_K-l_1\varepsilon(k))\leq 0$ *bo'lsa, u holda* $\sigma_{\text{ess}}(H(K))=\sigma_{\text{two}}^{(l)}(K)\cup[m_K;M_K]$ *bo'ladi;*

(b) *agar* $\min\limits_{k\in\mathbb{T}^3}\Delta\big(K-k;M_K-l_1\varepsilon(k)\big)\leq 0,$ $\max\limits_{k\in\mathbb{T}^3}\Delta(K-k;M_K-l_1\varepsilon(k))>0$ *bo'lsa, u holda*

$$\sigma_{\text{ess}}(H(K))=\sigma_{\text{two}}^{(l)}(K)\cup\left[m_K;E_{\max}^{(r)}(K)\right]\ \textit{bo'ladi;}$$

(c) *agar* $\min\limits_{k\in\mathbb{T}^3} \Delta(K-k; M_K - l_1\varepsilon(k)) > 0$ *bo'lsa, u holda*

$$\sigma_{\text{ess}}(H(K)) = \sigma_{\text{two}}^{(l)}(K) \cup [m_K; M_K] \cup \sigma_{\text{two}}^{(r)}(K)$$

